

INSON HUQUQLARI VA ERKINLIK LARI KAFOLATLARINING TA'MINLANISHI

Fozilova Hurriyat Namoz qizi

Muxammadova Marjona Zavqiy qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti 1-kurs talabalari va

Annotatsiya: *Ushbu maqola insonning qadr - qimmatini anglashga yordam berishga uni o'z haq- huquqini bilishga qaratilgan " Inson – jamiyat – davlat" degan yondashuvni Konstitutsiyaning mazmuniga chuqur singdirib, amaliy hayotimizda bosh qadriyatga aylantirishimiz zarur bo'lib hisoblanadi. Ya'ni, insonning qadr-qimmatini, sha'ni va g'ururi bundan buyon barcha sohalarda birinchi o'rinda turishi kerakligi alohida e'tirof etilmoqda. Har bir inson o'z haq-huquq va erkinliklarini bilishi, o'zining qadr- qimmatini toptalmasligi yo'l qo'ymasligi kerak.*

Kalit so'zlar: *demokratiya, fuqarolik, jamiyat, norma, konstitutsiyaviy tuzum, deklaratsiya, ombudsman.*

KIRISH

Inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilishning ta'minlanishi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning muhim sharti hisoblanadi. Mamlakatimizda o'tgan yillar mobaynida inson huquqlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamlil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi ushbu kafolatlarining yozma dalili bo'ldi. Jumladan Konstitutsiyaning 19-moddasida O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar deb belgilangan.

Mazkur normaning mantiqiy davomi va kafolati sifatida 20- moddada "Insonning konstitutsiya va qonunlarida mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, hamda ulardan sudning qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas" deb mustahkamlab qo'yilgan. Aynan shu normaning o'zi huquqlarning ta'minlashida bosh omil bo'lib xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyada keltirilishicha, mazkur huquqlar faqat qonunga muvofiq, konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin. Boshqa hollarda inson huquqlari daxlsizdir hamda uning himoyasi mamlakat hududida ham, undan tashqarisida ham davlat tomonidan ta'minlanadi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, inson huquqlarini ta'minlash borasida 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning O'zbekiston parlamenti tomonidan tasdiqlanganligi istiqbolning ilk yillarida qabul qilingan muhim xaqaro hujjat hisoblanadi.

Ushbu deklaratsiyaning 2- moddasiga “Har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e’tiqodlarida , milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi , milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki , tabaqasi yoki boshqa holatidan qat’i nazar ushbu Deklaratsiyada e’lon qilingan barcha huquq va erkinlikka ega bo’lish zarur, deb kiritilgan. Bundan tashqari 29- moddasida “Har bir inson jamiyat oldida burchlidir, faqat shu xolatdagina uning shaxsi erkin va to’liq kamol topishi mumkin.

Har bir inson o’z huquq va erkinliklaridan foydalanishda o’zgalarning huquq va erkinliklarini demokratik jamiyati yetarli darajada bo’lishni hamda hurmat qilinishini ta’minlash, axloq, jamoat tartibi , umum faravonligining odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishimiz kerak. Ushbu huquq va erkinliklarni amalga oshirish BMTning maqsadi va prinsiplariga hech zid bo’lmasligi kerak”, deb kiritilgan.

O’zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilish bo’yicha inson huquqlari mexanizmini kengaytirishga yo’naltirilgan yangi milliy institutlar tashkil qilindi. Shu jumladan 1995- yil qonun chiqaruvchi hokimiyat tizimida ya’ni Oliy Majlisi huzurida Ombudsman ishtirokida tuzilgan. Bundan tashqari inson huquqida va erkinliklarini muhofaza qilishning ta’sirli vositasining barpo etish, xalqaro tashkilotlar, hamda huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha aholining inson huquqlari bo’yicha madaniyatini oshirish maqsadida 1996-yil 31- oktabrda ijroiya hokimiyati tizimida tashkil qilingan. Mazkur tashkilotning asosiy vazifalari:

- inson huquqlari bo’yicha milliy harakatlar rejasini ishlab chiqarish ;
- inson huquqlariga rioya etilishi va himoya qilinishi bo’yicha milliy ma’ruzalar tayyorlash ;
- aholi o’rtasida inson huquqlari sohasida huquqiy targ’ibot ishlari olib borish ;
- hamda inson huquqlari sohasida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish etib belgilangan.

Yangi O’zbekistonda inson huquqlarini ta’minlash bo’yicha ham islohotlarning keng ko’lami amalga oshirildi. Inson huquqlari bo’yicha O’zbekiston Respublikasining milliy strategiyasi to’g’risidagi Prezident SHavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2020- yil 22- iyundagi 6012-son farmoniga ko’ra O’zbekiston inson huquqlarini rag’batlantirish, himoya qilish va ularga rioya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanib, 2017-2021 – yillarda O’zbekiston Respublikasining rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo’nalishi bo’yicha harakatlar strategiyasi shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini ta’minlash sohasida aniq maqsadga yo’naltirilgan chora tadbirlar amalga oshirilmoqda . Inson huquqlari bo’yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilikka va huquqni ta’minlash amaliyotiga tizimli hamda impelatsiya qo’llanmoqda.

Prezidentining 2019 – yil 17 – yanvardagi “Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to’g’risida” gi Farmoniga muvofiq Xalq qabulxonalarning tashkil etilishi ham inson huquqlarini ta’minlash uchun katta

turtki bo'ldi. Ushbu qabulxonaning tashkil etilishi , insonlarning muammolari bilan yaqindan tanishishga hamda ularni huquq va erkinliklarini ta'minlashga qo'shimcha imkon yaratdi.

Xulosa

Inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklari - insonga bekam-u ko'st yashash imkoniyatini beruvchi va iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy sohalarda o'z imkoniyat va talablarining amalga oshirilishini ta'minlovchi huquqiy maqom. Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asosidir. Xulosa qilib aytganda, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash hozirgi rivojlanayotgan har bir davlatning ustuvor vazifasi bo'lmog'i zarur. Avvalambor, insonlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini rivojlantirish orqali o'z haq – huquqlarini ajrata oladigan jamiyatni shakllantirish va mazkur huquqlarni ta'minlashini kafolatlash maqsadida inson huquqlari bo'yicha organlarni ishlarini yanada takomillashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR:

- 1.Konstitutsiya “O'zbekiston “ Toshkent 2023.
- 2.Constitutsion.uz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
- 3.Lex.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020- yil 22- iyundagi TS-6012 farmoni 1-ilova
- 4.“Turkiston – press“